

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI.**

*Po‘latova Dildora Aziz qizi*

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*“Islomshunoslik” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish*

*ICESCO” kafedrasi dotsenti **Muhabbat Agzamova***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, ma‘rifatparvar, dramaturg va publitsist Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, ilmiy-ma‘rifiy faoliyati hamda merosi tahlil etiladi. Behbudiyning milliy uyg‘onish g‘oyalari ilgari surishdagi roli, uning ta‘lim-tarbiya, matbuot va dramaturgiya sohalaridagi faoliyati, asarlari va u orqali jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va adabiyot rivojiga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda yoritiladi. Behbudiyning o‘z davrida ilgari surgan islohotchilik g‘oyalari, ularning bugungi kun uchun dolzarbligi, jadidchilik harakati tarixini o‘rganish, milliy o‘zlikni anglash va ma‘rifiy tafakkurni rivojlantirish kabi masalalar ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mahmudxo‘ja Behbudi, jadidchilik, ma‘rifatchilik, milliy uyg‘onish, islohotchilik, ta‘lim, matbuot, dramaturgiya, ilmiy meros.

Mamlakatimiz dunyo tamadduni va ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ allomalar, avliyolar yurti sifatida shuhrat qozongan. O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, allomalar nafaqat Sharq, balki jahon ilm-fani va madaniyatining rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan. Ularning ilmiy merosi, falsafiy qarashlari, ma‘naviy-axloqiy tamoyillari bugungi kunda ham insoniyat uchun bebaho manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan g‘oyalarni targ‘ib qilish, ularning dunyoqarashini shakllantirish va milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otish muhim ahamiyat kasb etib



kelmoqda. Bugungi globallashuv davrida milliy va ma'naviy qadriyatlarga nisbatan turli xatarlar, xususan, "ommaviy madaniyat"ning tahdidi kuchayib bormoqda. Axborot texnologiyalari va turli xil begona madaniyatlarga oid tushunchalarning ommalashishi, yoshlarning milliy qadriyatlari va an'anaviy tarbiya tamoyillaridan uzoqlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holat esa yosh avlodning o'zligini anglashiga, ma'naviy komillik sari intilishiga va yurt ravnaqiga o'z hissasini qo'shish istagiga raxna soladi. Natijada, yoshlarning ongini begona g'oyalar bilan yo'g'rilgan illatlar zaharlashi, ularning hayotga bo'lgan qarashlarini buzishi ehtimoli oshadi. Bunday salbiy ta'sirlarga qarshi turishning eng samarali yo'llaridan biri – milliy ma'naviy qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, yoshlarni ajdodlarimizning ibratli hayoti va ilmiy-ma'rifiy merosidan bahramand etishdir. O'zbekistonlik buyuk mutafakkirlarning asarlarida insoniylik, ezgulik, odob-axloq, ilmga intilish, vatanparvarlik, halollik va adolat kabi ma'naviy tamoyillar keng yoritilgan bo'lib, ular yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashda asosiy o'rin tutadi.

O'zbek milliy uyg'onish harakatining yirik namoyandasi, ma'rifatparvar, yozuvchi, publitsist, dramaturg, jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri, xalqni ilm-fan, ta'lim va ma'rifatga chorlagan, O'rta Osiyoda mustamlakachilik sharoitida yashab, millatni jaholat va qoloqlikdan chiqarish yo'lida fidokorona faoliyat yuritgan Mahmudxo'ja Behbudiyl 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga kelgan<sup>1</sup>.

U dastlab Samarqand madrasalarida, so'ngra Buxoroda tahsil olgan bo'lib, an'anaviy diniy ta'lim asosida puxta bilim olgan. U faqat madrasa ta'limi bilan cheklanib qolmay, o'z ustida doimiy ravishda izlanishlar olib borgan. Natijada shariat ilmi bo'yicha yuksak darajalarga erishib, qozi va muftiy maqomiga ko'tarilgan. Behbudiylning ilmga chanqoqligi, dunyoqarashining kengligi va islohotchilik faoliyati uning haj safariga chiqishi bilan yanada mustahkamlanadi. Hoji Muin Behbudiyl bunday istakning paydo bo'lish sabablarini izohlab, yozgan: "Behbudiyl 3-4 yoshdagi birinchi o'g'li o'lgani uchun juda hafalanib, bir yoqdan, qayg'usini

<sup>1</sup> N. Karimov / Mahmudxo'ja Behbudiyl. – T.: O'zbekiston, 2011. – B.9.



taskin etmak, ikkinchi yoqdan, adoi haj qilmoq maqsadi bilan 1899-yilda o‘zining do‘sti buhorolik Hoji Baqo bilan safarga chiqdi<sup>2</sup>.

Behbudiyning o‘zi esa “Oyna” jurnalining 1914-yil 31-sonida chop etilgan “Qasdi safar” deb nomlangan maqolasida ushbu safar to‘g‘risida bunday ma’lumot bergan: “1318 sanai hijriyasi tavofi Baytullohga Kafkaz yo‘li ila Istanbul va Misr va Qohira vositasida borib edim, muddati safarim sakkiz oydan ziyoda so‘zub edi”<sup>3</sup>. Ushbu ziyorat davomida u musulmon dunyosining turli hududlarini ko‘zdan kechirib, ilm-fan va ta’lim taraqqiyotining muhimligini yanada chuqurroq anglaydi. Safardan qaytgach, Behbudiy Turkistonda yangi maktab tizimini joriy etish g‘oyasini ilgari suradi va bu borada amaliy ishlarni boshlab yuboradi. Uning tashabbusi va sa’y-harakatlari bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi va Rajabamin qishloqlarida yangi usul maktablari tashkil etiladi<sup>4</sup>. Behbudiy bu maktablar uchun maxsus darsliklar yozishga kirishadi. Qisqa vaqt ichida “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyai Rusiy” (1905), “Kitobat-ul atfol” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi asarlari nashr etiladi. Ushbu darsliklar Turkiston maktablarida yangi usulda o‘qitish uchun asosiy manbalar bo‘lib xizmat qilgan. Behbudiy faqat ta’lim islohotlari bilan cheklanib qolmay, ilm-fan, madaniyat va milliy o‘zlikni anglash borasida ham keng qamrovli faoliyat yuritgan. 1903-1904-yillarda u Rossiyaning yirik ilmiy va siyosiy markazlari – Moskva va Sankt-Peterburgga borib, u yerdagi pedagogik va ijtimoiy-siyosiy muhit bilan yaqindan tanishadi. 1906-yilda esa Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod shaharlariga safar qiladi. Ushbu safarlar oddiy sayohat emas, balki ilmiy-ma’rifiy va jamoat faoliyatiga oid xizmat safarlari edi. 1906-yil 23-avgust kuni Nijniy Novgorod shahrida bo‘lib o‘tgan Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoyda Behbudiy faol ishtirok etadi. Ushbu muhim tadbirda u Turkiston vakillariga boshchilik qilib, milliy ma’rifat, ta’lim islohotlari va musulmon jamiyatining taraqqiyoti masalalari bo‘yicha yirik nutq so‘zlaydi. Bu qurultoy va safarlar Behbudiya jadidchilik harakatining rivojlanish yo‘nalishlarini

<sup>2</sup> Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat nashriyoti – B.22.

<sup>3</sup> Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. – T.: Manaviyat, 1999. – B.56.

<sup>4</sup> <https://jadid.uz/jadids/mahmudxoja-behbudiy/>. 03.02.2025



aniq belgilash imkonini beradi. U zamonaviy ta'lim tizimi, ilm-fan va matbuotning jamiyatdagi o'rni borasida chuqur xulosalar chiqaradi. Behbudiyning sa'y-harakatlari natijasida u Turkiston jadidlarining yetakchi namoyandasiga aylanadi va uning ilmiy, ma'rifiy hamda jamoat faoliyati jadidchilik harakatining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylanadi.

Mahmudxo'ja Behbudi nazarida ma'rifat faqat maktab bilan cheklanib qolmasligi kerak edi. Unga ko'ra, jamiyatni o'zgartirish va taraqqiy ettirish uchun insonlar zamon va dunyo voqealari bilan tanishib borishi, millat va Vatanning ahvoli, kundalik hayoti va muammolaridan xabardor bo'lishi lozim edi. Ayni shu talab va ehtiyoj Behbudiyni matbuot va teatr sari yetakladi. Uning fikricha, xalq uchun shunday axborot manbai kerak ediki, u o'zining yutuqlari bilan bir qatorda kamchiliklarini ham ko'rib, o'z ustida ishlashni boshlasin. Shu ma'noda, Behbudi matbuotni jamiyatning "ko'zgusi" deb hisoblagan. Matbuotning millat taraqqiyotidagi o'rnini chuqur anglagan Behbudi 1913-yilda "Oyna" gazetasini nashr eta boshladi<sup>5</sup>. Ushbu gazeta o'zbek matbuotining shakllanishida tub burilish yasadi. "Oyna" sahifalarida ta'lim, madaniyat, siyosat, iqtisod va ijtimoiy hayotga oid dolzarb masalalar yoritildi. Gazetaning asosiy maqsadi xalqni o'z haq-huquqlari, zamonaviy tafakkur va islohotlar bilan tanishtirish edi. Behbudi matbuot orqali jadidchilik harakatining asosiy g'oyalarini targ'ib etib, ma'rifat, taraqqiyot va milliy uyg'onish uchun kurash olib bordi. Gazetada ayollar huquqlari, bolalar tarbiyasi, siyosiy ongni oshirish kabi mavzular ham yoritilgan bo'lib, bu o'sha davr uchun katta jasorat hisoblanardi. "Oyna" orqali Behbudi Turkiston jamiyatining ijtimoiy kamchiliklarini ochiq-oydin tanqid qildi va islohotlar tarafdori sifatida chiqdi. Afsuski, ushbu ilg'or nashr rasmiy doiralar tomonidan bosimga uchradi va 1915-yilda yopildi.

Behbudi xalqni o'stirish va isloh qilish yo'lida teatrning ham muhim ahamiyatga ega ekanligini tushungan edi. Uning nazarida, teatr – bu xalqni tarbiyalaydigan, unda milliy o'zlik va ijtimoiy mas'uliyat hissini uyg'otadigan kuchli vosita edi. Uning "millat uchun oyna kerak" degan g'oyasi aynan sahna san'ati orqali

<sup>5</sup> Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudi [Matn]: risola. / Z.Abdirashidov. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B.13.



ham o'z ifodasini topdi. Jadid adabiyoti va teatrining shakllanishida muhim rol o'ynagan Behbudiy, jamiyatdagi muammolarni sahna orqali ko'rsatish, insonlarni bevosita ongli harakat qilishga undash g'oyasini ilgari surdi. Bu borada Behbudiy 1911-yilda "Padarkush" nomli ilk o'zbek dramasini yozdi. Ushbu asar o'zbek dramaturgiyasi va teatr san'ati rivojida tub burilish yasadi. Drama jamiyatdagi eski urf-odatlar, jaholat va bilimga bo'lgan e'tiborsizlik natijasida yuzaga keladigan muammolarni yoritadi. Asarda eski va yangi dunyoqarash to'qnashuvi, yoshlarning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi omillar, oilaviy tarbiya muammolari chuqur ochib berilgan. Shunga qaramay, "Padarkush" sahnaga qo'yilishi oson bo'lmadi. Asar 1911-yilda yozilgan bo'lsa, 1913-yilda bosilib chiqdi. Uning nashr etilishi uchun katta qiyinchiliklarga duch kelindi. Asar o'sha davr jamiyatining real muammolarini yoritib, uni isloh qilishga chaqirar edi. Kitobning muqovasida "Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubiley sanasiga bag'ishlanadi" degan yozuv bor edi. Bu yozuv va kitobning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilgani shuni ko'rsatadiki, Behbudiy asarining nashr etilishi qiyin kechgan va rasmiy idoralarning e'tiboridan chetda qolmagan<sup>6</sup>. Drama chop etilgandan keyin ham uni sahnaga qo'yish ancha vaqt talab qildi. Buning asosiy sababi Turkiston jamiyatida teatr san'atiga nisbatan shakllangan eski qarashlar edi. O'sha davrda sahnada rol ijro etish, milliy muammolarni ochiq-oydin ko'rsatish jamiyat tomonidan unchalik ijobiy qabul qilinmagan. Bu haqda Behbudiy o'z maktublarida kinoyali qilib shunday yozgan edi: "Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'qki, teatru sahnasiga chiqib, "masxarabozlik" qilsa." Bu fikrlar o'sha davrning ijtimoiy muhitidan dalolat beradi. Barcha qiyinchiliklarga qaramay, 1914-yilning 15-yanvarida u Samarqand sahnasida namoyish etildi. Mahalliy matbuotning yozishicha, spektaklga katta qiziqish bo'lgan: "Xalq nihoyat ko'p kelib, bilek yetmagani va joy yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi." Bu holat shuni ko'rsatadiki, xalq ilma'rifatga, teatr san'atiga ehtiyoj sezgan va o'z jamiyatining muammolarini aks ettirgan sahna asarlarini ko'rishga ishtiyoq bildirgan.

<sup>6</sup> <https://jadid.uz/jadids/mahmudxoja-behbudiy/>. 03.02.2025



Shu yilning 27-fevralida Toshkentda, mashhur Abdulla Avloniy boshchiligidagi “Turon” truppasi ilk bor sahna faoliyatini aynan “Padarkush” bilan boshladi. Spektakl Toshkentdagi Kolizeyda namoyish etildi<sup>7</sup>. Ushbu tadbir oldidan Munavvarqori Abdurashidxonov teatrning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida nutq so‘zladi. Bu esa teatrning nafaqat badiiy, balki ma’rifiy ahamiyat kasb etayotganining isboti edi. Asarda boy rolini Abdulla Avloniyning o‘zi ijro etgan bo‘lib, uning mahorati spektaklga alohida ta’sir kuchi bergan. Mahalliy matbuot ushbu kunni “tarixiy kun” deb baholadi, aynan shu voqea orqali Turkistonda yangi teatr san’ati rivojiga tamal toshi qo‘yildi. Ushbu drama Turkistonda jadid teatrining shakllanishida muhim rol o‘ynadi va keyinchalik Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Fitrat kabi yozuvchilarning dramaturgiyaga murojaat qilishiga turtki berdi.

“Padarkush” uch parda va to‘rt manzaradan iborat bo‘lib, hajman ixcham, mazmun jihatidan esa oddiy, ammo nihoyatda kuchli ma’no va g‘oyaga ega. Asar syujeti hayotiy voqealarga asoslangan bo‘lib, unda milliy muammolar, ma’rifatning o‘rni va ilmning jamiyat rivojidadagi ahamiyati yoritiladi. Behbudiy dramada realistik uslubda yozish orqali xalqni o‘zining ijtimoiy holatiga oynada aks etgandek qarashga undaydi. Bu orqali u tomoshabinni nafaqat asarni tomosha qilishga, balki o‘z hayoti va jamiyatning kelajagi haqida o‘ylashga majbur qiladi.

Dramaning bosh qahramoni Toshmurod — boyning o‘qimagan o‘g‘li. Asar voqealari Toshmurodning hayot yo‘li orqali namoyon bo‘ladi. U yoshligida ilm olmagan, tarbiyasiz o‘sgan, natijada axloqiy buzqlik yo‘liga kirib, jamiyatning tuban qatlamiga qo‘shiladi. U restoranda o‘z sheriklari bilan maishat qilish uchun pul topolmagach, ularga boy otasining uyiga bostirib kirishni taklif qiladi. Tunda uyga bostirib kirgan Toshmurod va sheriklari otasining uyg‘onib qolishini sezib, uni shafqatsizlarcha o‘ldirishadi va pulini olib qochishadi. Asar oxirida esa u qilmishiga afsus qiladi, ammo ortga qaytishning imkoni bo‘lmaydi.

“Padarkush” o‘zbek dramaturgiyasiga tub burilish yasagan asar bo‘lib, uning sahnalashtirilishi o‘zbek teatr san’atining shakllanishida muhim voqea bo‘ldi. Asar

---

<sup>7</sup> Mahmudxo‘ja Behbudiy / N. Karimov. – T.: O‘zbekiston, 2011. – B.44.



soddaligi, hayotiy voqealar asosida yozilgani va chuqur ma'rifiy g'oyasi bilan xalqning e'tiborini tortdi. Unda aks etgan ijtimoiy masalalar faqat o'sha davrga emas, balki hozirgi zamon uchun ham dolzarb. Ushbu asar o'zbek dramaturgiyasining keyingi rivojiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Behbudiy faoliyati davomida nafaqat ta'lim va matbuot sohasida, balki siyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etgan. 1917-yilgi Fevral inqilobi va Rossiya imperiyasida sodir bo'lgan o'zgarishlar Turkiston mustamlakasi uchun ham muhim siyosiy burilish yasadi<sup>8</sup>. Rossiyaning mustamlakachilik siyosati zaiflashgan bir paytda, mahalliy jadid ziyolilari va yoshlar harakati Buxoro amirligini isloh qilishga harakat qildi. Buxoro amiri Abdulahadxon va uning o'g'li Olimxon mustamlakachilar himoyasi ostida o'z hokimiyatini saqlab qolishga urindi.

Buxoroda inqilobiy kayfiyat 1917-yilning bahor oylarida kuchayib borayotgan edi. Amirning islohotlar e'lon qilish niyati mustamlaka ma'murlarining maslahatlari bilan bog'liq bo'lib, u o'z hukmronligini saqlab qolish uchun vaqtincha choralar ko'rishga majbur bo'ldi. Islohotlar loyihasi Buxorodagi rus elchixonasi rahbari Miller tomonidan tayyorlangan bo'lsa-da, bu jarayonda Turkiston Muvaqqat hukumati ham qatnashgan. Shu munosabat bilan sobiq general-gubernator, Turkiston Muvaqqat hukumatining vakili Kuropatkin topshirig'i bilan Samarqanddan Buxoroga maxsus hay'at yuborildi. Ushbu hay'at tarkibida Behbudiy ham bor edi. 7-aprel kuni Buxoroda islohotlar tantanali ravishda e'lon qilinishi lozim edi, ammo bu voqea fojiga aylandi. Amir va islohotchi jadidlar o'rtasidagi ziddiyatlar ochiq to'qnashuvga sabab bo'ldi. Natijada, Miller butun aybni Behbudiyning zimmasiga yukladi. Turkiston ishchi va soldat deputatlari sovetlarining 9-aprel kuni boshlangan birinchi o'lka syezdida ham rus deputatlari Buxoroda yuz bergan fojيانing sababini Samarqanddan kelgan vakillarga to'nkashdi. Bu esa milliy ozodlik harakatini ichkaridan bo'lib tashlash, jadidlarga qarshi targ'ibot olib borish siyosatining bir qismi edi. Behbudiy bu tuhmatlarga qarshi chiqib, "Buxoro voqealari va daf'i tuhmat"

---

<sup>8</sup> Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy [Matn]: risola. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B.21.



nomli maqolasini “Hurriyat” gazetasida e’lon qildi (1917-yil, 1-may). Ushbu maqolada u Buxorodagi voqealarning asl mohiyatini ochib berishga harakat qildi.

Turkistindagi yangi siyosiy kuchlar 1917-yildan keying yillarda Behbudiy bilan muzokaralar olib bordi. U Turkiston rus sovet hukumatining rahbarlari bilan uchrashib, milliy manfaatlar va o‘zbek xalqining taqdirini himoya qilishga harakat qildi. Biroq, Sovetlar jadidlar va milliy ziyolilarning mustaqillik harakatlarini o‘z hokimiyatlari uchun xavfli deb bilib, ularga qarshi keskin kurash olib borishdi. Behbudiy 1919-yil bahorida qattiq ta’qib ostida qoldi. U mustamlakachi kuchlar va mahalliy mutaassiblarning ham nishoniga aylangan edi. 25-mart kuni u Shahrisabzda hibsga olinib, sirli ravishda Qarshi shahrida qatl etildi. Uning o‘limi haqidagi xabar vatani Samarqandga bir yildan keyin yetib kelgan. 1920-yilning aprel oyida butun Turkiston Behbudiyning xotirasiga motam tutdi. O‘zbek jadid ziyolilari va xalq orasida Behbudiyning fojiali o‘limiga bag‘ishlangan o‘nlab marsiyalar yozildi.

Xalqimiz tarixining murakkab davrlarida, ma’rifat mash’alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma, jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri, buyuk ma’rifatparvar va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi 2025-yilda keng nishonlandi. Bu tadbir uning boy merosini chuqur o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish uchun muhim voqea bo‘ldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr o‘zbek adabiyoti, san’ati va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, millatning ma’rifati, ozodligi va hurligi yo‘lida mardonavor kurashgan ulug‘ siymolardan biridir. U zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish, milliy matbuotni rivojlantirish, teatr san’atiga asos solish hamda millat ongini uyg‘otish yo‘lida beqiyos xizmat qilgan. Uning fidokorona faoliyati tarix sahifalaridan mangu o‘rin egallab, bugungi kunda ham yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning merosini e’zozlash, uning ilmiy va ma’rifiy faoliyatini davom ettirish maqsadida yurtimizda turli tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda. Uning nomini abadiylashtirish maqsadida Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi stipendiya tashkil etilgan. Bu stipendiya yoshlarning yuksak bilim va ma’rifatga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish, ularni vatanparvarlik va milliy ong bilan tarbiyalashga



xizmat qiladi. Yoshlarga milliy o'zlikni anglash, ilm va ma'rifat yo'li bilan mustaqil fikrlash, Vatan va xalq ravnaqiga xizmat qilish kabi qadriyatlarni singdirish Behbudiyning ma'naviy merosining davom etishiga zamin yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. N. Karimov / Mahmudxo'ja Behbudi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 80 b.
2. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat nashriyoti, – 256 b.
3. Behbudi Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat nashriyoti, 1999. – 280 b.
4. Z.Abdirashidov. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudi [Matn]: risola. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
5. <https://jadid.uz/jadids/mahmudxoja-behbudi/>. 03.02.2025.